

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA XALQARO STANDART BO'YICHA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI YURITISH VA ULARNI BAHOLASH TARTIBI

ACCOUNTING AND VALUATION PROCEDURES FOR FIXED ASSETS IN BUSINESS ENTITIES IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS

¹G'aniyev Zafar Usanovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Moliyaviy hisob va hisobot" kafedrası dotsenti, PhD. **G-mail:** zafarganiyev24@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) talablari asosida hisobga olish va baholashning nazariy hamda amaliy jihatlar batafsil yoritilgan. Jumladan, asosiy vositalarni tan olish mezonlari, ularning dastlabki qiymatini aniqlash tartibi, keyingi baholash usullari (qayta baholash modeli va amortizatsiya asosida hisobga olish) keng tahlil qilingan. Shuningdek, aktivlarning qiymatini qayta baholash mexanizmi, uning moliyaviy hisobotlarga ta'siri hamda ushbu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rib chiqilgan. Maqola doirasida xalqaro tajriba va amaldagi standartlar asosida asosiy vositalardan samarali foydalanish hamda ularning hisobini yuritishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ham berilgan.

Eng. - This article examines in detail the theoretical and practical aspects of accounting for and valuing property, plant, and equipment in business entities in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS). In particular, it discusses the recognition criteria for fixed assets, the procedures for determining their initial cost, and the methods of subsequent measurement, including the cost model and the revaluation model. Furthermore, the article explores the mechanism of asset revaluation, its impact on financial statements, and the potential challenges that may arise in this process along with possible solutions. It also provides recommendations and suggestions based on international practices and current standards for improving the accounting and effective utilization of property, plant, and equipment.

Kalit so'zlar: **Keywords:**

- ❖ asosiy vositalar, moddiy aktivlar, eskirish, boshlang'ich qiymat, joriy qiymat, qoldiq qiymat, tugatish qiymati, tiklash qiymati.
- ❖ fixed assets, tangible assets, depreciation, initial cost, current value, residual value, liquidation value, replacement cost.

Kirish.

Bugungi global iqtisodiy integratsiya sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotni xalqaro talablar asosida yuritishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, asosiy vositalarni to'g'ri baholash

korxonaning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligini belgilab beradi.

Rivojlangan mamlakatlarga ishlab chiqarilgan mahsulotlarni olib chiqa olish va sota olish uchun o'sha mahsulotlar yuqori sifatli bo'lishi zarur. Yuqori sifatli mahsulotlarni esa faqat yuqori texnologiyalar

orqali ishlab chiqarish mumkin. Shu sababli korxonalarni texnik va texnologik jihozlashni rivojlantirish, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish mamlakatimizdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar oldida turgan eng muhim vazifalardan sanaladi. Ayniqsa asosiy vositalarni muntazam yangilab turishda uning hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) 16-sonli "Asosiy vositalar" nomli standart asosida yuritish qulay investitsion muhit yaratadi.

Asosiy vositalar hisobining uslub va uslubiyotlari masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Biz aynan 16-BHXS "Mulk, mashinalar va asbob-uskunalar" nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standartining amaliyotga joriy etilishi, hisobning uslubiy asoslarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganilishi muhim hisoblanadi.

Mazkur 16-BHXS "Mulk, mashinalar va asbob-uskunalar" nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti va 5-son "Asosiy vositalar" nomli BHMS o'rtasidagi farqli jihatlarni quyidagicha izohlash mumkin:

- 16-BHXS "Mulk, mashinalar va asbob-uskunalar" nomli standartni O'zbekiston hisob siyosatiga joriy etish mamlakatimiz iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- aksiyadorlik jamiyatlari tarkibidagi korxonalar misolida 16-BHXS "Mulk, mashinalar va asbob-uskunalar" nomli standartning amalda korxonalar moliyaviy holatiga ta'sirini o'rganish;

- 16-BHXS talqin qilinishidagi ehtiyoj;

- 16-BHXS ni amaliyotga joriy etish natijasida normativ-huquqiy hujjatlarda ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishi va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash;

- 16-BHXS va 5-BHMS o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlarni o'rganish maqsadida analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, usullarini qo'llash;

- 16-BHXS va BHMS sintetik hamda tahliliy hisobini taqqoslash, tahlil usuli orqali avfzalliklar va muammoli yechimlarni topish.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalarni tan olish, baholash va ular hisobini yuritish bo'yicha bir qancha ilmiy ishlar hamda mavzu yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, xorijiy iqtisodchi olimlardan, ya'ni, Rossiya iqtisodchi olimlari D.A. Endovitskiy va K.N. Mokshina tomonidan "Asosiy vosita obyekti bir paytning o'zida ham asosiy vosita, ham aktiv, ham umuman noaktiv sifatida tan olinishi mumkin" [1], deb hisoblaydilar.

Iqtisodiy taraqqiyoti davomida "Asosiy kapital" (asosiy vositalar) atamasi terminologiyadan chiqarildi va "Asosiy fondlar" tuchunchasi paydo bo'ldi. "Asosiy fondlar" ta'rifini asosan moliyaviy tahlil maqsadlari uchun, "Asosiy vositalar" esa - buxgalteriya hisobida qo'llash qabul qilingan. Ammo iqtisodchi olimlarning ba'zilar bu ikki tuchunchani sinonim deb hisoblaydilar va "Asosiy vositalar" atamasini aks ettirishda qavslar ishida, "Asosiy fondlar" deb yozadilar.

B.V. Ostapenko va I.I. Malis "Asosiy fondlar asosiy vositalarning xarajat ifodasidir" degan fikr bildirganlar. P.I. Poletaevning fikricha, "Asosiy vositalar sanoat binolari, inshootlar, quvvat va qishloq xo'jaligi mashinalari, ishlab chiqarish uskunolari, transport vositalari va boshqa turdagi asosiy vositalarning xarajat shaklidir" [2] deb ta'riflaydi.

Bu borada mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ham asosiy vositalarning turli jihatlarni o'rganganlar. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari E. Gadoyev, N. Xasanov va L.Yugayning ta'riflariga ko'ra, "asosiy fondlar, moddiy va nomoddiy aktivlar majmui" [3] sifatida tushuniladi.

K.B. Urazov ilmiy tadqiqotlarida asosiy vositalarga doir xarajatlar, daromadlar hisob siyosatida ochilishi lozim bo'lgan jihatlarni o'rgangan [4]. Olim asosiy vositalar ta'miri yoki rekonstruktsiya xarajatlari asosiy vositaning qiymatini o'zgartiradi va amortizatsiya qayta hisoblanishi lozim deb e'tirof etadi.

Olimlarning izlanishlarini o'rganish jarayonida 3 ta terminni ajratib olish va ularning mazmuniga aniqlik kiritishni lozim deb bildik: "Asosiy vositalar", "asosiy fondlar" va "asosiy kapital".

"Asosiy fondlar" tarkibiga ham moddiy (shu jumladan asosiy vositalar) hamda nomoddiy aktivlar kiradi. "Asosiy kapital" iborasi juda keng ma'noga ega. Asosiy kapital tarkibiga moddiy aktivlar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli qo'yilmalar va tugallanmagan qurilishlar kiradi.

Shunday qilib, olimlarning fikrlarini o'rganar ekanmiz, quyidagi xulosa yuzaga keladi, tashkilotning asosiy vositalarining aylanish jarayonida kapitalning ajralmas qismiga aylanadi, bir vaqtning o'zida quyidagi aniq shakllarga bo'lishi mumkin: pul, ishlab chiqarish va tovar. Ishlab chiqarish kapitalining binolar, inshootlar, mashina, asbob-uskunalar va boshqa ishlab chiqarishda qayta-qayta ishtirok etadigan, o'z qiymatini asta-sekin ulushlarda tayyor mahsulotga o'tkazadigan mehnat vositalari mujassamlashgan qismi asosiy vositalar deb ataladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolani yozish va uni tahlil etishda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, buxgalteriya hisobi, statistika, iqtisodiy tahlil hamda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda xalqaro standartlar joriy etilgan bir vaqtda, asosiy vositalar hisobi yangi me'yor hamda metodologiyaga ehtiyoj sezadi. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida har bir MHXS bosqichma-bosqich rasman qabul qilingan.

Har bir qabul qilingan standartga asosan metodologiyada qo'shimcha yo'riqnomalar, nazoratning yangi raqamlashtirilgan usullarini ishlab chiqilgan. O'zbekistonda hisob tizimi bugungi kunda huddi shunday takomillashtirilgan hisob va nazorat tizimiga ehtiyoj sezmoqda. Normativ hujjatlarga asosan xo'jalik yurituvchi subyektlar hisob siyosatidan

moliyaviy hisobot taomillarini yuritishda andoza sifatida foydalanadilar.

Bizga ma'lumki, aktivlar moddiylik nuqtai nazaridan ikkita turga bo'linadi, ya'ni, moddiy aktivlar va nomoddiy aktivlar. Moddiy aktivlar o'z navbatida, ikkita guruhga ajratiladi: Uzoq muddatli moddiy va qisqa muddatli moddiy aktivlar. Hozirgi amaliyotimizda qo'llanilib kelinayotgan "Asosiy vositalar" tushunchasi "Uzoq muddatli moddiy aktivlar"ning mohiyati va aniqliklarini o'zida mujassamlantirishi kerak. Xorijiy adabiyotlarda "Aylanmadan tashqari aktivlar", "Uzoq muddatli moddiy aktivlar" atamalaridan foydalanishgan. Bizning fikrimizcha, uzoq muddatli moddiy aktivlar tarkibini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirsak, "Mulk, mashina va asbob-uskunalar" atamasini amaliyotimizga kiritish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Ushbu holatlardan kelib chiqib, bugungi kunda xalqaro standartlar jadal joriy qilinayotgan sharoitda atamalarni to'g'ri tarjima qilish, ulardan mazmunan to'g'ri foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bois, ingliz tilidagi "property, plant, and equipment" atamasini o'zbek tilida asosiy vositalar deb emas, balki "Mulk, mashina va asbob-uskunalar" (MMU) deb qabul qilishni taklif etamiz.

Iqtisodchi olimlar ham asosiy vositalarga o'zlarining ta'riflarini keltirib o'tgan.

Xorijiy olimlardan L. Kurakov [5] asosiy vositalar – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadlaridagi mehnat vositalari (binolar, inshootlar, mashina va mexanizmlar, inventarlar, transport vositalari) deb ta'rif bergan bo'lsa, o'zimizning iqtisodchi olimlarimizdan I.N. Ismanov [6] asosiy vositalar – korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalaniluvchi moddiy aktivlar, A. Shakarov [7] esa asosiy vositalar – sanoat binolari, inshootlar, qishloq

xo'jaligi mashinasozligi, ishlab chiqarish uskunalari, transport vositalari va boshqa turdagi asosiy vositalar deb ta'kidlab o'tgan.

16-son BHXSda quyidagicha ta'rif berilgan: "Mulk, mashina va asbob- uskunalar – bu moddiy aktivlar bo'lib, qaysiki:

kompaniya tomonidan ishlab chiqarish yoki tovarlarni jo'natish, xizmatlar ko'rsatish, ijaraga berish yoki ma'muriy maqsadlarda foydalanadi;

bir davrdan ortiq foydalanish ko'zda tutiladi." [8] deb keltirib o'tilgan.


5-sonli BHMSda quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Asosiy vositalar - korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoki ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar" [9].

16-son BHXS Property, Plant and equipmen deb nomlanadi. Ushbu standartning

tarjimasi mana bunday variantlarga ega: "Mulk, zavodlar va asbob-uskunalar hisobi", "Mulk, mashina va asbob-uskunalar hisobi" yoki "Yer mulki, zavodlar va asbob-uskunalar hisobi", "Ko'chmas mulk, qurilmalar va uskunalar".

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan atamaning tarjimasidagi 3 ta variantni ham to'g'ri deb hisoblash mumkin, chunki ular izoh jihatdan bir ma'noni anglatadi. IAS 16 Property, Plant and Equipment ya'ni, Mulk, mashinalar va uskunalar deb nomlanishi ushbu standartning klassifikatori va tarkibidan kelib chiqadi.

E'tiborimizni, Property, Plant and Equipment IAS 16 ning avvalambor mavjud nomiga so'ng tarkibiga qaratsak: property – mulk – yer, yer uchastkalari va binolar; plant – zavodlar, mashinalar – yer osti, yer usti, havo va suv transport vositalari; equipment – uskunalar, mebel va muhandislik uskunalarining yer ostidagi elementlari va ofis jihozlari (1-rasm).



1-rasm. Property, Plant and Equipment atamasining tarkibiy tuzilishi

Fikrimizcha, jahonda ro'y berayotgan yirik hisob standartlarining konvergentsiyasi va transformatsiyasi sharoitida Property, Plant and Equipment (rasmiy qisqartirmasi PP&E.) atamasi qo'llanilishi lozim. Binobarin, butun dunyodagi ishbilarmonlik muhitining globallashuvi kompaniyalar o'rtasida taqqoslashni oshirish uchun yagona standartlar to'plamini talab etadi. 2002-yilning oktabr oyida FASB va IASB tomonidan "Norwalk

Agreement" (Norvoulk bitimi) nomli O'zaro tushunish haqidagi memorandumining a-bandi: mavjud moliyaviy hisobot standartlari to'liq mos kelishi, talabiga to'liq javob beradi.

Asosiy vositalar jamg'arilgan amortizatsiya va jamg'arilgan qadrsizlanishdan zarar summasi chegirilgan boshlang'ich qiymati bo'yicha aks ettiriladi. Bu asosiy vositalarning balans qiymati yoki qoldiq qiymati deb ataladi. 16-son BHXS'lari

talablaridan kelib chiqadigan bo'lsak, asosiy vositalarning balans qiymati quyidagicha aniqlanadi:

***Asosiy vositalarning balans qiymati =
asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati -
Jamg'arilgan amortizatsiya - Jamg'arilgan
qadsizlanishdan zarar***

Ushbu holatda alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bizning amaliyotimizda asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatidan jamg'arilgan amortizatsiya chegirilsada, lekin jamg'arilgan qadsizlanishdan zarar summasini chegirish amalga oshirilmaydi. Shu bois, xalqaro standartlarga muvofiq lashtirish maqsadida albatta jamg'arilgan qadsizlanishdan zararni hisobga olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

16-son BHXSn ing 16 va 17-bandlariga muvofiq, asosiy vositalar aktiv sifatida tan olinganda boshlang'ich qiymat bo'yicha baholanadi:

(a) import poshlinasi, sotib olishdagi qaytarilmaydigan soliqlarni o'z ishiga olgan hamda savdo chegirmasi va qaytarilishlardan tashqari xarid narxi;

(b) aktivlarni kerakli joyga yetkazish va tashkilot rahbariyati ko'zda tutgan maqsadga muvofiq holda amal qilinishini ta'minlovchi holatga keltirishga oid to'g'ridan-to'g'ri olib boriladigan har qanday xarajatlar;

Bularga kiradi:

✓ asosiy vositalarni yaratish yoki xarid qilish bilan bevosita bog'liq xodimlarni rag'batlantirish xarajatlari;

✓ maydonni tayyorlash xarajatlari;

✓ ortish va tushirish xarajatlari;

✓ montaj va o'rnatish xarajatlari;

✓ asbob-uskunalar ni testdan o'tkazish (sinash natijasida olingan mahsulotlarni sotishdan olingan tushum chiqariladi);

✓ professional xizmatlar qiymati.

(c) aktivlarni terish, demontaj va obyekt joylashadigan uchastkadagi asosiy vositalarni chiqarib tashlash va tabiiy resurslarni qayta tiklashga oid xarajatlarning boshlang'ich baholanishi, qaysiki bularga nisbatan tashkilot

ushbu obyektlarni xarid qilishda yoki ushbu davr davomida zaxiralarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda ma'lum davr vaqt davomida ekspluatatsiya oqibatida majburiyatni o'z zimmasiga oladi".

16-son BHXSDa asosiy vositalarni keyingi baholash uchun ikkita modeldan foydalanishni ko'zda tutadi: tannarx bo'yicha hisobga olish modeli hamda qayta baholash modeli bo'yicha hisobga olish metodi.

Tannarx bo'yicha hisobga olish modeli aktiv sifatida tan olinganidan so'ng, asosiy vosita obyekti uning tannarxidan har qanday jamg'arilgan eskirish summasi va har qanday qadsizlanish bo'yicha yig'ilgan zararlar chegirib tashlangan qiymatda hisobga olinishi kerak.

Goldiq qiymat = Dastlabki qiymat - Jamg'arilgan amortizatsiya - Qadsizlanish zarari.

Qayta baholash modelida aktiv sifatida tan olinganidan so'ng, haqqoniy qiymati ishonchli tarzda baholanishi mumkin bo'lgan asosiy vosita obyekti qayta baholangan qiymati bo'yicha hisobga olinishi kerak. Bunda uning qayta baholangan qiymati bo'lib uni qayta baholash sanasiga bo'lgan haqqoniy qiymatidan keyinchalik jamg'arilgan eskirish summasi va keyinchalik yig'ilgan qadsizlanish bo'yicha zararlar chegirilgandagi qiymati hisoblanadi. Aktivning balans qiymati hisobot davri oxiridagi haqqoniy qiymati asosida aniqlanadigan qiymatidan muhim darajada farq qilmasligi uchun qayta baholashlar yetarlicha muntazam ravishda o'tkazilishi kerak.

Qayta baholash davriyligi qayta baholanayotgan asosiy vosita obyektining haqqoniy qiymatidagi o'zgarishlarga bog'liq.

Agar qayta baholangan aktivning haqqoniy qiymati uning balans qiymatidan muhim darajada farq qilsa, unda qo'shimcha tarzda qayta baholash talab etiladi. Ayrim asosiy vositalarning haqqoniy qiymatida ahamiyatli va o'zgaruvchan tebranishlar kuzatilishi mumkin, shuning uchun ularni har

yili qayta baholashdan o'tkazish zarurati kelib chiqishi mumkin.

Haqqoniy qiymati ahamiyatli bo'lmagan o'zgarishlarga uchraydigan asosiy vositalar uchun faqatgina uch yoki besh yilda qayta baholash o'tkazish talabi yuzaga kelishi mumkin. Asosiy vositalar qayta baholanganda, ushbu aktiv tegishli bo'lgan asosiy vositalarning butun sinfi ham qayta baholanishi lozim.

Agar qayta baholash natijasida aktivning balans qiymati oshadigan bo'lsa, oshgan summa boshqa umumlashgan daromadlar

tarkibida tan olinishi hamda xususiy kapital tarkibidagi “Qayta baholash natijasida qiymatning o'sishi” moddasida jamg'arilib borishi lozim.


Agar qayta baholash natijasida aktivning balans qiymati kamayadigan bo'lsa, oldin qayta baholash bo'yicha yaratilgan rezerv summasiga qadar kamaytiriladi, unda oshgan qismi foyda yoki zararlar tarkibida tan olinishi lozim.

Buni misolda ko'rib chiqamiz. Xo'jalik yurituvchi subyektda 2018-yil 1-yanvarda 120 000 sh.b. asosiy vosita obyektni xarid qildi.

Sana	Haqqoniy qiymati	Haqqoniy qiymatidagi o'zgarish	Foyda yoki zarar	Boshqa umumlashgan daromad	Qayta baholash bo'yicha rezerv
01.01.2018	120 000				
31.12.2018	125 000	5 000		5 000	5 000
31.12.2019	129 000	4 000		4 000	9 000
31.12.2020	119 000	(10 000)	(1 000)	(9 000)	0
31.12.2021	115 000	(4 000)	(4 000)		
31.12.2022	117 000	2 000	2 000		
31.12.2023	122 000	5 000	3 000	2 000	2 000
31.12.2024	128 000	6 000		6 000	8 000
31.12.2025	124 000	(4 000)		(4 000)	4 000

Bugungi kunda 16-son BHXS “Mulk, ashina va asbob-uskunalar” standarti talablaridan kelib chiqib, tashkilotlar hisob siyosatida asosiy vositalarlarni qayta baholashning ketma-ketligini ishlab chiqish

muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, korxonalar uchun asosiy vositalarini qayta baholash jarayonini o'tkazishda quyidagi ketma-ketlikni tavsiya etamiz (2- rasm).



2-rasm. “Asosiy vositalar” ni qayta baholash jarayonini o'tkazish ketma-ketligi

Ushbu 2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qayta baholash jarayonini ma'lum bir ketma-ketlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qayta baholash jarayonini tashkil etish faqat moliya-buxgalteriya sohasidagi xodimlarning vazifasi, balki butun boshqaruv tizimining ham vazifasiga kiradi. Asosiy vositalarning adolatli (haqqoniy) qiymatini aniqlash, aktivlarning qadrsizlanishi testdan o'tkazish kabi jarayonlar bu top boshqaruvdagi xodimlarning ham vazifasi hisoblanadi. Agar biz baholash tizimiga

e'tibor bermasak, MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzishga erisha olmaymiz. MHXSlarga o'tishning asosiy shartlaridan biri bu adolatli, ya'ni haqqoniy qiymatga o'tish hisoblanadi. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, moliyaviy hisobot adolatli qiymatga asoslanadi.

16-son BHXS qayta baholash natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha qoidalarini ham mujassamlantirgan. Ularning asosiy mazmun mohiyatini quyidagi 1-jadvalda rasmiylashtiramiz.

1-jadval

16-son BHXSlariga muvofiq asosiy vositalarni qayta baholash natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirishga oid qoidalar

T.r	Qoidalar	Asos
1	Agarda qayta baholash natijasida aktivning balans qiymati oshsa, bunday oshishning summasi boshqa umumlashgan daromadlar sifatida tan olinadi va kapitalda "qayta baholashdan qiymatning oshishi bo'yisha rezervi" ustunida jamg'ariladi.	16-son BHXSning 39-bandi
2	Agarda qayta baholash natijasida aktivning balans qiymati kamaysa, bunday kamayishning summasi foyda va zararlarga o'g'risidagi hisobotda tan olinadi	16-son BHXSning 40-bandi
3	Agarda oldingi qayta baholashda aktivlar qiymatining kamayishi va keyingi qayta baholashda qiymatning oshishi yuz bergan bo'lsa, dastavval foyda va zararlarga o'g'risidagi hisobotda oldingi qiymatning kamayishi natijasidagi zararni qoplash darajasidagi summada tan olinadi, qiymatni oshishidan qolgan qismi boshqa umumlashgan daromatlarda tan olinadi	16-son BHXSning 39-bandi
4	Agarda oldingi qayta baholashda aktivlar qiymatining oshishiva keyingi qayta baholashda qiymatning kamayishi yuz bergan bo'lsa, ushbu summa dastavval "qayta baholashdan qiymatning oshishi bo'yisha rezerv" ning kamayishiga olib boriladi. Agarda ushbu rezerv etmasa, qolgan qismi foyda va zararlarga o'g'risidagi hisobotda tan olinadi	16-son BHXSning 40-bandi
5	Qayta baholangan aktiv tugatilgan taqdirda "Qayta baholashdan qiymatning oshishi bo'yisha rezerv" "Taqsimlanmagan foyda" ga o'tkazilishi mumkin.	16-son BHXSning 41-bandi

Ushbu uslubiy tartib mulk, mashina va asbob-uskunalar hisobini xalqaro standartlarga muvofiq holda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

"Asosiy vositalar" (BHXS 16) standartni amaliyotga joriy etishni takomillashtirish bo'yisha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Asosiy vositalar tushunchasining o'rniga xalqaro standartlar talablaridan kelib

chiqib «Property, Plant and Equipment»ni o'zbek tilida «Mulk, mashina va uskunalar» deb nomlash hamda ularning har birining tarkibini belgilash lozim. Ushbu takliflar asosiy vositalarga oid atamalarni xalqaro standartlarga muvofiq lashtirishga xizmat qiladi.

2. Bizning amaliyotga «Adolatli (haqqoniy) qiymat» tushunchasi hali to'liq kirib kelmagan, keng joriy etilmagan. Adolatli (haqqoniy) qiymatni aniqlaydigan faol bozorlar, professional baholash bilan

shug'ullanadigan tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish kerak. Mulk, mashina va asbob-uskunalarni nafaqat «1-yanvar holati bo'yicha» qayta baholash, balki bu sanani o'z hisob siyosatida belgilash huquqini korxonalarga berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Chunki, raqamli iqtisodiyot sharoitida mulk, mashina va asbob-uskunalarining ma'lum bir tasnifi bo'yicha adolatli (haqqoniy) qiymatning o'zgarishini faqat subyektning o'zi belgilashi mumkin.

3. Xo'jalik yurituvchi subyektlar va tashkilotlar uchun mulk, mashina va asbob-uskunalarni qayta baholash jarayonini o'tkazishda oltita bosqichdan iborat bo'lgan ketma-ketlikni, har bir bosqichda amalga oshiriladigan ishlarni oldindan belgilab olish qayta baholash natijalarining sifati oshishiga xizmat qiladi. Asosiy vositalarni qayta baholash natijasida ular qiymatining oshishi tashkilotning «boshqa umumlashgan daromadlari» tarkibida tan olishini talab qiladi. Bu daromadlarni hisobga olish uchun amaldagi 21-sonli BHMSda alohida schyotlar ko'zda tutilmagan. Shu bois, ushbu schyotlar rejasiga «Mulk, mashina va asbob-uskunalarni qayta baholashdan olingan boshqa umumlashgan daromadlar» schyotini kiritish kerak.

4. Xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqib, korxonalarining moliyaviy holati to'g'risidagi hisobotdan foydalanuvchilarga aktivlar tarkibi to'g'risida ishonchli va batafsil axborotni taqdim etish maqsadida «Mulk, mashina va uskunalarining harakati

to'g'risida»gi hisobotning yangi shaklini ishlab chiqish zarur.

5. Xalqaro amaliyotda mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar tasarrufi (disposals) tushunchasi kiritilgan. Bu mulkdan maqsadga muvofiq foydalanish, ijaraga berish, kerak bo'lsa sotish, tugatish yoki qonunda ruxsat berilgan boshqa chiqarilishlarini qamrab oladi. Mamlakatimiz amaliyotda huquqiy ma'noda qo'llanilsa ham, lekin sohaga doir adabiyotlarda tasarruf atamasi kiritilmagan. Shuningdek tartibga soluvchi uslubiy qoidalarni me'yoriy-huquqiy asoslarga muvofiqlashtirish tartibida amalga oshiriladi.

6. Xalqaro standartda ehtiyot qismlari va servis asbob-uskunolari odatda zaxira sifatida hisobga olinishi va iste'mol qilinishi mobaynida foyda va zararlarda tan olinishi qayd etilgan. Biroq, agar tashkilot yirik ehtiyot qismlari va rezervdagi asbob-uskunalardan bir davrdan ortiq davrda foydalanishni ko'zda tutsa, «Asosiy vosita» sifatida tavsiflanadi. Analogik tarzda, agar ehtiyot qismlari va servis asbob-uskunolari «Asosiy vosita» obyektlarini ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq holda foydalanilgan taqdirda «Asosiy vosita» sifatida hisobga olinishini tartibga solishni takomillashtirish lozim.

Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi asosiy vositalarni milliy standartlar asosida tan olinishi va hisobini yuritilishini bir vaqtning o'zida xalqaro standartlar asosida yuritilsa tashqi foydalanuvchilarga ishonchli ma'lumotlar taqdim etilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari 5-sonli: «Asosiy vositalar»ni taqsimlash haqida. 2024-yil 14-iyun, 133-son buyrug'i.

2. Ендовитский Д.А., Мокшина К.Н. Сушность основний средств как объекта бухгалтерского учета в контексте проблем учета капитала. //Международный бухгалтерский учет, 2013 № 25.

3. Полетаев, П. И. воспроизводство основных фондов и эффективность сельского хозяйства / П. И. Полетаев. – М.: Колос, 1977. – 144 с.

4. Gadoyev E., Xasanov N., L. Yugay. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish va soliqqa tortish./ Soliqlar va bojxona xabarlar. – Tashkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2003.

5. Urazov K.B. Asosiy vositalarga doir daromadlar: hisob siyosatida ochilishi lozim bo'lgan jihatlar xususida.// «Soliq to'lovchining jurnali», 2000-y. №6. - 23-25-betlar.

6. Кураков Л.П. Экономика и право: большой толковый словарь-справочник. – М.: вуз и шк., 2003 (Чебоксары:РГУП ИПК Чувашия). - 866 с.

7. Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dis. avtorefat. – Toshkent: BMA -2009.- 33 b.

8. Shakarov A.M. Asosiy vositalar hisobi va nazoratini tashkil qilish (mulkchilikning turli xil shakllarida) Toshkent moliya institutiti. Iqtisodiyot fanlari nomzodlik dissertatsiyasiga Avtoreferat: 08.00.00.2000-yil.

9. 16-МСФО Основные средства. <https://finotchet.ru/articles/138>